

PAPER

YUNUS EMRO SHE'RIYATIDA YUSUF (A.S.) OBRAZINING TASAVVUFİY–IRFONİY TASVIRI

Muratova Aziza Kamilovna ^{1, *}

¹ Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

* azizamuratova3141@gmail.com

Abstract

Maqolada Yunus Emro she'riyatida Yusuf alayhissalom obrazining irfoniy va tasavvufiy talqini masalasini o'rganadi. Obraz va tasvir vositalari orqali inson ruhining ma'rifiy rivojlanishi, qalb pokligi va Haqqa intilish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqot Yunus Emro she'riyatining tasavvufiy mohiyatini, Yusuf timsolining falsafiy va diniy ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

Key words:

Yusuf alayhissalom, Yunus Emro, tasavvuf, irfon, obraz, tasvir.

Kirish

Yunus Emro she'riyati O'rta Osiyo va Turkiy dunyo tasavvuf merosining yorqin namunasidir. Shoir asarlarida inson qalbining poklanishi, ruhiy o'sishi va Haqqa yaqinlashish masalalari markaziy o'rin tutadi. Maqolada Yusuf (a.s.) obrazining Yunus Emro she'riyatida irfoniy talqini o'rganiladi. Obraz orqali solikning ruhiy sayohati, fano va ishq kontseptsionalari, qalbning poklanishi va Haqqa intilishi nazariy va badiiy jihatdan tahlil qilinadi.

Yunus Emro inson ruhining ichki dunyosi, ma'rifiy yuksalish va tasavvufiy poklanish jarayonini chuqur badiiy obrazlar orqali o'z

she'rlarida ochib beradi:

Аъюб каби сабр айла, Ёқуб мисол чўқ йиғла,
Юсуф каби сан тағин Канъона эришгунча.

Shoir insonning ma'naviy kamolot yo'lini uch bosqichli tasavvufiy jarayon sifatida ko'rsatadi. Ayyub (a.s.)ning sabri tasavvufda ibtido, ya'ni nafsni jilovlash darajasi bilan bog'lanadi. Ya'qub (a.s.)ning yig'isi suluk bosqichiga ishora bo'lib, bunda firoq, hijron, iztirob solikni poklovchi sifatida qaraladi. Yusufning Kan'onga qaytishi esa intiho, ya'ni ruhning asl vataniga Haqqa qaytish holati. Demak, uch obraz uch maqomni ifodalaydi. Sabr (Ayyub), iztirob (Ya'qub), vasl va najot (Yusuf).

Кетмас ошиқ кўзидан ҳаргиз маъшуқ ҳаёли.

Compiled on: December 16, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Humanities* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

Кўр, қанча берур Зулайҳо Юсуфнинг нишони-ни.

Solikning ko'zida ma'shuq timsolining hech so'nmasligi, qalbning zikrdagi davomiy hushyorligidandir. Zulayho tomonidan "nishon berilishi" nafsning o'zi yorug'likka talpinishi sifatida sharhlanadi. Shoir Zulayho obrazini ma'naviy o'zgarishning boshlang'ich nuqtasi sifatida oshiq ko'ngliga kelayotgan ilhomning ilk alomatlarini orqali ko'rsatadi.

Ёқуб каби Юсуф учун йиғладим, чекдим фироқ,

Юсуфман, зиндон ичинда фазли раҳмон ис-тарам.

Ushbu baytda firoq motivi yanada chuqurlashadi. Shoir o'zini talab yo'lida qiynalgan solikka qiyoslaydi. Solik endi komillikka intiluvchi jon bo'lib, "zindon" – dunyo kasratini bildiradi. Zindondan chiqish uchun esa "fazli Rahmon", ya'ni Haqning lutfini istashi shart. Bu holot tasavvufdagi "faqr" maqomiga hamohang, solik hojatmand emas, balki to'liq Haqqa muhtoj.

Юзинг кўрган кўз толар,

Ой туғмакка уёлар,

Кўрганлар ҳайрон қолар,

Юсуфи Канъонимсан.

Bu bayt jamol, ilohiy tajallining eng nafis ko'rinishi. Shoir jamolni ulkan nur sifatida talqin qilgan holda, oyning uyalishi orqali Haq jamolining koinotga sig'masligini badiiylashtiradi. "Yusufi Kan'onim" atamasi esa murshid timsoliga borib taqaladi. Solik murshidda Haq nurining aksini ko'radi.

Юсуфам, бозора келдим, Мансур бўлиб дора келдим,

Арслонам – шикора келдим ва лекин ётоғим унда.

Bayt tasavvufdagi fano va shuhud konsepsiyasi bilan bog'liq. Yusuf jamolning, Mansur haqiqatni oshkor etishning (Ana'l-Haqq) timsoli. Bozor –dunyo maydoni. "Dora" – Haq so'zining haqiqati uchun jonini fido qilish, ya'ni taslim bo'lish maqomi. Bu jarayonda solik "arslon"dir. Botiniy qudrat, g'ayrat va shijoat bilan "shikor"ga, Haqni topishga kiradi. Lekin "yotog'im unda" degan jumla solikning o'z nafsiga qaytishini, Haqni tashqaridan emas, ichidan izlash zarurligini bildiradi.

Бу олабий касратда сан Юсуф ибни Яъқуб,

Ул олабий ваҳдатда на Юсуфу на Канъон.

Bu bayt vahdatu-l-vujudning sof poetik ifodasidir. Birinchi misra dunyoviy olam (kasrat)ni ko'rsatadi. Unda har bir narsa nomli, shaklli, farqli. Yusuf ibni Ya'qub ham. Ammo ikkinchi misrada tasavvufning eng oliy g'oyasi keladi. Vahdat olamida ism yo'q, nisbat yo'q, shakl yo'q faqat Haq bor. "Na Yusuf, na Kan'on" esa solikning ham, payg'ambar timsolining ham Haqqa qaytib, beshakllashishi, bir haqiqatga singib ketishidir. Bu baqo maqomi bilan bog'liq.

Билмадинг сен ўзингни, садафда не гавҳар-сан,

Мисрга султон бўлиб, Канъон орзу қиларсан!

Misralarda tasavvufning nafsni bilish, o'zini bilish, Haqni bilish zanjiri yotadi. Nafs (sadaf) ichidagi ruhiy mohiyat (gavhar). Shoir insonga xitob qiladi: Misrga sulton bo'lish, dunyo qudratini qo'lga kiritish. Lekin Kan'onni orzu qilish ruhning asl vataniga qaytishga intilishidir. Odam o'z gavharini bilmaguncha, tashqi podshohlik ichki firoqni bosolmaydi.

Юсуфдаги ҳусну камол, Яъқубдаги ҳусну ма-лол,

Гоҳ бадр ўлам, гоҳи ҳилол, кўкда моҳи тобон манам.

Yunus Emroning ushbu satrlari mumtoz adabiyotdagi takroriy jamol–jalol konsepsiyasiga qurilgan. Yusuf – jamol, zuhur. Yoqub – malol, ya'ni sabr va iztirob jamoli. Shoir o'z holatini goh badr (komil hol), goh hilol (kamlik holi) bilan izohlaydi. Bu tasavvufda talvin holning o'zgaruvchanligi maqomi. Ammo oxirida "моҳи тобон манам" solikning Haq nuri bilan munavvar bo'lishi, hol va maqomlarning ustiga ko'tarilishi, tamkinga erishish ramzidir.

Халилнинг ҳулласи, Яъқубнинг оҳи,

Юсуфнинг банд ила зиндони сенсан.

Inson ruhiyatidagi uch bosqichni jamlaydi. Ibrohimning hullasi bu tavakkulning shiddati. Ya'qubning ohi esa ma'rifiy iztirob. Yusufning zindoni, dunyoning kasrat-bandligi. Shoir insonning qalbini shu uch olam jamlangan ma'naviy makon sifatida tasvirlaydi.

Yunus Emro Yusuf (a.s.) obrazini tasvirlashda, ko'plab badiiy va irfoniy vositalardan foydalanadi. Xususan, quduq va zindon – ruhiy sinovlar

va nafs bilan bog'liq qiyinchiliklar ramzi. Bu vositalar orqali solikning fano va ishq jarayoni, qalbning Haqqa to'lishi badiiy tarzda ochib beriladi. Shuningdek, shoirdagi tasavvufiy yondashuv "ilm ul-yaqin"dan "ayn ul-yaqin"ga ko'tarilishga yaqinlashish orqali ifodalanadi. Yusufning go'zalligi va ma'rifiy qudrati bu jarayonni markaziy nuqta sifatida namoyon qiladi.

Yunus Emro Yusuf (a.s.) obrazining mumtoz adabiyotdagi an'anasini davom ettirar ekan, tarixiy voqeani emas, balki insonning ichki sayrini badiylashtirganiga guvoh bo'lamiz. Kasratdan vahdatga, hijrondan huzurga, zindondan ilohiy erkinlikka o'tish jarayonini poetik va tasavvufiy birlashtirish orqali ifodalaydi. Natijada, baytlar jamlanmasi tasavvufdagi maqomot (sabr, rizo, shavq, fano, baqo) va holotlar (istig'roq, talvin, tamkin) bilan uyg'unlashib, o'ziga xos ruhiy konsepsiyaga ega bo'ladi.

Yunus Emro she'riyatida Yusuf (a.s.) obrazi irfoniy va tasavvufiy ramz sifatida markaziy o'rin tutadi. Ushbu obraz orqali shoirdagi ruhiy izlanishlar, qalbning poklanishi, Haqqa intilish va fano jarayoni badiiy tarzda ifodalanadi. Yusufning go'zalligi nafaqat tashqi husn, balki ruhiy nur, qalbning Haqqa yaqinlashishi va ma'rifiy tajallining ramzi sifatida talqin qilinadi.

Yusuf (a.s.) obrazi orqali Yunus Emro:

1. Qalb va ruhning poklanishi – Yusufning kelishi, jomning sinishi va Zulayho ishq orqali ifodalanadi;
2. Haqning tajallisi va irfoniy idrok – qalb solikning Haq nurini idrok etish va ruhiy kamolga yetish jarayoni bilan boyitiladi;
3. Fano va ishq – nafsdan ozod bo'lish, ruhiy shodlik va ma'rifatga yetish jarayoni baytlarda tasvirlanadi;
4. Tasviriy va badiiy vositalar – quduq, zindon, sharob, shakar, jom, dom solikning ruhiy tajribalarini badiiy tarzda yoritadi.

Xulosa

Shunday qilib, Yusuf (a.s.) obrazi Yunus Emro ijodida tasavvufiy irfoniy talqin nuqtai nazaridan o'rganilsa, shoirning ruhiy falsafasi, qalb va ma'rifat izlanishlari, fano va ishq jarayoni yanada ravshan ko'rinadi. Obrazning badiiy ifodasi nafaqat tarixiy shaxsiyatni yoritadi, balki solik qalbining

Haqqa intilish yo'lini ham ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima // Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – T., 2001.
2. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадойиъу-с-санойиъ. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1981.
3. Юнус Эмра. Ҳақдан сўйлар бу тилим. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмиси, 1991.
4. Маҳмуд Асъад Жўшон. Юнус Эмро ва Тасаввuf / Шеърлар. – Т.: Фан, 2001.
5. Мумтоз адабиёт манбалари луғати. / Тузувчи В.Раҳмонов; масъул муҳаррир Ҳ.Болтабоев. – Т.: MUMTOZ SO'Z, 2009.
6. Орзибеков Р. Ўзбек адабиётида ғазал ва мусаммат. – Тошкент: Фан 1976.